

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Jabbarova I.X.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası doktoranti, t.f.f.d (PhD), dotsent

Qarshi davlat universiteti

iqbol.jabbarova@gmail.com

SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin suv xo‘jaligi tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Sovet davridan meros qolgan markazlashgan boshqaruv tizimining o‘zgarishi, havzaviy boshqaruv tamoyiliga o‘tish jarayonlari, suv iste’molchilari uyushmalari faoliyati va sohani raqamlashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, Qashqadaryo vohasi misolida sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada islohotlarning huquqiy asoslari, bosqichlari va erishilgan natijalarga oid ilmiy tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi, institutsional islohotlar, havzaviy boshqaruv, suv iste’molchilari uyushmalari, raqamlashtirish, transchegaraviy suv resurslari, irrigatsiya.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Suv xo‘jaligi tizimi ham ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Sobiq ittifoq davrida shakllangan suv resurslarini boshqarish tizimi markazlashgan bo‘lib, u asosan umumittifoq ehtiyojlariga xizmat qilgan, hududiy xususiyatlar va mahalliy ehtiyojlar esa yetarli darajada hisobga olinmagan [1]. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida suv xo‘jaligi tizimi suv resurslarini boshqarishning markazlashgan tizimida bo‘lib, mahalliy ehtiyojlarni to‘liq hisobga olish imkonini bermagan. Xususan, irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasining katta qismi eskirgan holatda bo‘lib, ko‘plab kanallar, nasos stansiyalari va drenaj tizimlari ta’mirtalab edi. Suvni yetkazib berish jarayonida katta yo‘qotishlar kuzatilgan, suvdan foydalanish samaradorligi past bo‘lgan. Qashqadaryo vohasi kabi qurg‘oqchil hududlarda bu muammolar yanada keskin namoyon bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [2].

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so‘ng suv xo‘jaligi tizimini tubdan isloh qilish jarayoni, avvalo, mustahkam huquqiy asoslarni yaratishdan boshlandi. Suv resurslari mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi barqarorligining muhim omili sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi¹. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumatning asosiy e’tibori sug‘orish infratuzilmasini tashkil qilish va boshqarishni huquqiy bazasini yaratish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlarni joriy qilishdan iborat bo‘ldi. Xususan, suv balanslarining rasmiy hisobda yuritilishi, inspeksiya nazorati, suv obyektlaridan foydalanish va fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasini yo‘lga

qo'yish tartibi kabi vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasida mustahkamlandi [3].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekistonda mustaqillik yillarida suv xo'jaligi boshqaruvida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning bosqichlarini, asosiy yo'nalishlarini va erishilgan natijalarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish va ilmiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Suv xo'jaligi boshqaruvining dastlabki bosqichi (1991–1995). O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan suv xo'jaligida ham chuqur institutsional islohotlar zarurati yuzaga keldi. Sovet davrida suv resurslarini boshqarish Ittifoq miqyosidagi "Gidroproyekt", "Sredazgiprovdoklopok" va boshqa markazlashgan loyiha-idoralar orqali amalga oshirilar, suv taqsimoti respublikalararo komissiyalar tomonidan boshqarilar edi. Markaziy Osiyo respublikalari suv resurslaridan foydalanishda Moskva markaziga qaram edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida (1991–1995) suv xo'jaligi boshqaruvi asosan Sovet Ittifoqidan meros qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asosida faoliyat yuritdi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Suv xo'jaligi qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u 1993-yilda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibiga kiritildi. Ushbu tuzilmada suv resurslarini boshqarish asosan idoraviy yondashuv asosida olib borilgan: suvdan foydalanish, meliorativ holat va irrigatsiya tizimlari bir vazirlik doirasida boshqarildi. Ammo boshqaruvda hanuz "meros" tizim mavjud edi. Suv iste'molchilari o'rtasida aniq huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarning yo'qligi, suv hisobi tizimining eskirganligi va suvdan foydalanishda real iqtisodiy rag'batlarning mavjud emasligi, transchegaraviy suv oqimlarini boshqarishda qo'shni davlatlar bilan huquqiy asoslarning nomutanosibligi endi suvdan foydalanishda huquqiy asoslarni yaratish kerakligini dalolati edi[4].

Mustaqillikdan so'ng suv xo'jaligi tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 1993-yilda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi Qonun suv resurslarini davlat mulki sifatida belgilab, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur hujjat suv xo'jaligi tizimini boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi va suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy va ekologik yondashuvlarni uyg'unlashtirishga xizmat qildi [5]. 1991-yil 20-iyulda Orol dengizida suv tanqisligi va ekologik muammolar keskinlashgan sharoitda keng ko'lamdagi tadqiqotlarni rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishning, ularni muhofaza etishning ilmiy asoslarini yaratish maqsadida "O'zSSR Fanlar akademiyasining suv muammolari institutini tashkil etish to'g'risida" gi Vazirlar mahkamasining Qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra institutning bundan keyingi vazifalari va bajaradigan topshiriqlari belgilab berildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida suv xo'jaligi tizimi ham yangi boshqaruv mexanizmlariga moslashtirildi. Davlat tomonidan moliyalashtirish hajmining qisqarishi suv xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish, suvni tejash va

boshqaruvni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, suvdan foydalanuvchilar – fermer xo‘jaliklari va boshqa subyektlarning roli oshib bordi, bu esa suv taqsimotida yangi munosabatlarning shakllanishiga olib keldi[6].

Havzaviy boshqaruv tizimiga o‘tish. 2000-yillardan boshlab suv xo‘jaligi tizimida bosqichma-bosqich institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, suv resurslarini havza tamoyili asosida boshqarish tizimi joriy etilib, Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo‘yicha boshqaruv strukturalari shakllantirildi. Bu tizim suv resurslarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib boshqarish imkonini yaratdi hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qildi. 2003-yil 12-dekabrda “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini boshqarish tuzilmalarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori bilan Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qayta tashkil etilib, uning negizida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi (SXV) tashkil etildi. Bu qaror suv sohasining texnik va institutsional rivojlanishini mustaqil vazirlik darajasida boshqarish zaruratidan kelib chiqqan[7].

Qashqadaryo vohasi Amudaryo havzasiga kiruvchi hudud sifatida Amu–Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi orqali boshqarila boshladi. Mazkur boshqarma 2003-yilda tashkil qilindi. Bu tizim suv resurslarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib taqsimlash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suv yo‘qotishlarini kamaytirishga xizmat qildi. Havza prinsipining asosiy afzalliklari suv resurslarini kompleks boshqarish, ekologik muvozanatni saqlash va suvdan foydalanishda hududlararo muvofiqlikni ta‘minlashdan iborat. Shu bilan birga, bu tizimni joriy etishda tashkiliy va texnik muammolar, jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada moslashmaganligi va kadrlar masalasi kabi qiyinchiliklar ham kuzatildi[8].

Islohotlarning strategik yo‘nalishlari. 2000-yildan keyingi davrda suv xo‘jaligi boshqaruvi islohotlari quyidagi strategik yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

Birinchidan, markazsizlashtirish va suv havzaviy boshqaruvi – suv xo‘jaligi tashkilotlari tuman va viloyatga bo‘ysunishdan chiqarilib, havzalar kesimida qayta tuzildi. Bu o‘zgarishlar natijasida suv resurslarini taqsimlashda hududlararo nizolar kamaydi, suv hisobi va monitoringi yaxshilandi¹.

Ikkinchidan, suv iste‘molchilari uyushmalari (SIU) tizimini rivojlantirish – 2005-yilga kelib 1500-dan ortiq SIU tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 1850 dan oshdi. SIUlar fermer xo‘jaliklari o‘rtasida suvni taqsimlash, kanallarni tozalash va sug‘orish texnologiyalarini joriy etishda vositachi rolini bajaradi. SIU tizimi suv boshqaruvida ishtirokchilarning mas‘uliyatini oshirgan bo‘lsa-da, ularning moliyaviy barqarorligi va texnik salohiyati hali ham muammoli[9].

Uchinchidan, iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish – 2010-yildan boshlab suvdan foydalanganlik uchun to‘lovlar bosqichma-bosqich joriy qilindi. Dastlab faqat sanoat korxonalari uchun amal qilgan ushbu tizim 2015-yildan keyin qishloq xo‘jaligi iste‘molchilarini ham qamrab oldi. 2020-yildan boshlab suv hisoblagichlari o‘rnatish majburiy holga keltirildi. Biroq, suv tariflari hali ham to‘liq iqtisodiy qiymatni aks ettirmaydi – subsidiyalar hisobiga iste‘molchilar uchun arzonligicha qolmoqda.

Toʻrtinchidan, raqamlashtirish va monitoring tizimini takomillashtirish – 2018–2024 yillarda Suv xoʻjaligi vazirligi huzurida “Yagona geografik axborot tizimi” (GIS) ishga tushirildi. Ushbu tizim orqali asosiy kanallar va nasos stansiyalarida masofadan zondlash, suv sathi va sarfini onlayn kuzatish yoʻlga qoʻyilgan. 2023-yil holatiga koʻra, 67 ta yirik gidropostlarda avtomatlashtirilgan suv hisobi tizimi ishlamoqda. Raqamlashtirish suv yoʻqotishlarini qisqartirish va suv taqsimoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[10].

Transchegaraviy suv boshqaruvi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining 70–80% dan ortigʻi Oʻzbekiston hududiga qoʻshni davlatlar (Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozogʻiston) orqali oqib keladigan Amudaryo va Sirdaryo havzalarida shakllanadi. Shu sababli, transchegaraviy suv boshqaruvi institutsional oʻzgarishlarning muhim yoʻnalishidir[11]. 1992-yilda tuzilgan Davlatlararo Muvofiqlashtiruvchi Suv xoʻjaligi Komissiyasi (DMK) har yili suv taqsimoti limitlari va suv oʻtkazish grafiklarini tasdiqlaydi. DMK tarkibida Sirdaryo va Amudaryo havzaviy suv boshqarmalari mavjud. Markaziy Osiyo Suv energetikasi va suv resurslari konsortsiumi 2010-yilda tashkil etilgan boʻlib, ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqadi. BMTning Mintaqaviy ekologik markazi suv diplomatiyasi va tomonlar oʻrtasidagi nizolarni yumshatishda vositachilik qiladi[12].

Qishloq xoʻjaligida suv sarfining yuqoriligi, qoʻshni davlatlarning gidroenergetik siyosati suv oqimining iqlim oʻzgarishi taʼsirida kamayishi kabi transchegaraviy suv boshqaruvidagi asosiy muammolar mavjud boʻlib, Oʻzbekiston soʻnggi yillarda qoʻshni davlatlar bilan suv-energetik masalalarda diplomatik faollikni oshirdi va suv resurslarini tejash boʻyicha qator ikki tomonlama memorandumlar imzoladi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda suv xoʻjaligi boshqaruvining institutsional tizimi sezilarli darajada oʻzgardi: idoraviy markazlashgan tizimdan havzaviy, qisman markazsizlashtirilgan, ishtirokchi va raqamlashtirilgan boshqaruv modeliga oʻtildi. Asosiy institutsional yutuqlar quyidagilardan iborat: suv resurslarini havzaviy boshqarish tamoyilining joriy etilishi va hududiy havzaviy boshqarmaning tashkil etilishi; suv isteʼmolchilari uyushmalari tizimining rivojlantirilishi; suvdan foydalanishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi (suv toʻlovlari, litsenziyalar); transchegaraviy suv munosabatlarida institutsional muloqotning kuchayishi.

Oʻzbekiston suv xoʻjaligi tizimi murakkab oʻtish bosqichini bosib oʻtdi. Sobiq tizimdan meros boʻlib qolgan muammolarni bartaraf etish bilan bir qatorda, zamonaviy, samarali va barqaror boshqaruv tizimini shakllantirishga erishildi. Bu jarayon Qashqadaryo vohasida ham irrigatsiya tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq xoʻjaligi rivojiga xizmat qiluvchi muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, institutsional islohotlar hali yakunlanmagan: suv tariflari iqtisodiy jihatdan asoslanmaganligi, SIUlar moliyaviy jihatdan zaifligi, suv boshqaruvi tizimida idoralararo muvofiqlashtirishning sustligi kabi muammolar mavjud. Kelgusi tadqiqotlar suv boshqaruvining iqtisodiy

samaradorligi, suv iste'molchilari xulq-atvorining o'zgarishi va raqamli transformatsiyaning ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011. – 432 b
2. B. A. Bazarov. Suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. –B. 65
3. Сидоров А. Нарастание кризисных явлений в экономике СССР: оценка руководством страны (осень 1989 года) // Электронный вестник. Выпуск №87. Август 2021. -48-60 с.
4. Холиқулова Х. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий тараққиёти. Ўқув қўлланма. –Жиззах, 2020. –Б. 73.
5. Топилдиев С. Ўзбекистонда аграр муносабатлар ривожланишининг тарихий жиҳатлари. Иқт. фан. ном. дисс. автореферати – Тошкент, 2011.-Б.14;
6. [195-сон 20.07.1991.O'zSSJ Fanlar akademiyasining suv muammolari institutini tashkil etish to'g'risida](#)
7. Yu. Yusupov. Qishloq aholi punktlarida yer resurslaridan foydalanishni boshqarish ishlarini takomillashtirish // Oriental Renaissance Innovative, educational, natural and social sciences. October, 2022. – P. 523
8. Amu-Qashqadaryo ITHB materiallari asosida
9. [982-сон 11.12.2019. Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.12.2019 y. 982-son “Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. Mamarasulov U. Turkiya bilan suv bo'yicha hamkorlik // O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi. mart, 2026
12. Mamarasulov U. Turkiya bilan suv bo'yicha hamkorlik // O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi. mart, 2026

Жаббарова И.Х.

Докторант (DSc)., доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Каршинский государственный университет
iqbol.jabborova@gmail.com

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В УПРАВЛЕНИИ ВОДНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются институциональные реформы, осуществленные в системе водного хозяйства Республики Узбекистан после обретения независимости. Освещаются трансформация унаследованной от советского периода централизованной системы управления, переход к бассейновому принципу управления, деятельность ассоциаций водопотребителей и вопросы цифровизации отрасли. Также рассматриваются практические аспекты модернизации ирригационных систем на примере Кашкадарьинского оазиса. В статье представлен научный анализ правовых основ, этапов реформ и достигнутых результатов.

Ключевые слова: водное хозяйство, институциональные реформы, бассейновое управление, ассоциации водопотребителей, цифровизация, трансграничные водные ресурсы, ирригация.

Jabbarova I.Kh.

Doctoral (DSc) student, associate professor at the department of
«History of Uzbekistan»
Karshi State University
iqbol.jabborova@gmail.com

INSTITUTIONAL REFORMS IN WATER MANAGEMENT: EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the institutional reforms implemented in the water management system of the Republic of Uzbekistan after gaining independence. The transformation of the centralized management system inherited from the Soviet era, the transition to the basin management principle, the activities of water consumers' associations, and the issues of digitalization of the sector are highlighted. The practical aspects of modernization of irrigation systems are also examined using the example of the Kashkadarya oasis. The article provides a scientific analysis of the legal foundations, stages of reforms, and achieved results.

Key words: water management, institutional reforms, basin management, water consumers' associations, digitalization, transboundary water resources, irrigation.